

AN'ANAVIY XONANDALIKNING RIVOJLANISH TARIXI

Mamadolimova Malika*Yunus Rajabiy nomidagi**O'zbek milliy musiqa san'ati instituti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida an'anaviy xonandalik – maqom haqida tushunchalarni shakllantirishning dolzarb masalalari qamrab olingan. Shuningdek, muallif darsliklarda mumtoz ashulani o'rganish bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar, musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligidagi kamchiliklar, maqomlarni kuylash malakasining talab darajasida emasligi va ularni bartaraf qilishning yo'l-yo'riqlari haqida fikr yuritgan.*

Kalit so'zlar: *mumtoz, an'anaviy xonandalik, qo'shiqchilik, maqom, meros, diopazon, chormaqom, kichik oktava, improvizatsion ijrochilik.*

Hozirgi kunda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda musiqiy tarbiya ulkan ahamiyatga ega. Bu o'rinda musiqa yo'nalishi pedagog kadrlari va ularning kasbiy mahorati o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa insonning ruhiy olamiga bevosita ta'sir etadi. Estetik didini shakllantirib beradi. Musiqaning yo'nalishi, janri va ijrosi uning umumiy darajasini belgilaydi. Qo'shiqchilik san'at turi sifatida yuksak ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. Qo'shiqchilik tarixi uzoq o'tmishga ega. O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixiy va qadimiy yozma manbalar, arxeologik topilmalar asosida mukammal rivojlangan.

Hozirgi kunda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda musiqiy tarbiya ulkan ahamiyatga ega. Bu o'rinda musiqa yo'nalishi pedagog kadrlari va ularning kasbiy mahorati o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa insonning ruhiy olamiga bevosita ta'sir etadi. Estetik didini shakllantirib beradi. Musiqaning yo'nalishi, janri va ijrosi uning umumiy darajasini belgilaydi. Qo'shiqchilik san'at turi sifatida yuksak ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. Qo'shiqchilik tarixi uzoq o'tmishga ega. O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixiy va qadimiy yozma manbalar, arxeologik topilmalar asosida mukammal rivojlangan. An'anaviy qo'shiqchilikning dastlabki namunalari uzoq yillik tarixga ega. Musiqiy merosimizni mukammal yaxlit fan darajasiga olib chiqishda Abu Nasr Muhammad al-Farobiyning xizmatlari katta. Al-Farobiy qadimgi musiqiy namunalarni ijrosi va taxlilini mukammal o'rgangan. Al-Farobiyning bu fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi shundan iboratki, izlanishlar samarasi tariqasida musiqa nazariyasi ilmiy fanini yaratdi. "Musiqa uslublari haqida kitob" nomli risolasida musiqa ijrochiligi keng yoritib berilgan. Yana bir allomalarimizdan biri Ibn Sino ham musiqa ilmiga oid ko'plab asarlar yaratgan. Ibn Sino tibbiyot ilmi mutaxassisi bo'lgani barchamizga ma'lum. "Shifo kitob" nomli risolasida olim musiqa ilmi, kuy va ashulalar tahlili hamda uning insonga ta'siri tushuntirib berilgan. O'n to'qqizinchi yigirmanchi asr musiqa madaniyati rivojlanish tarixida Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf al-Kotib, al-Xorazmiy, Safauddin Abdulmo'min, Muhammad ibn Ma'sud ash-Sheroziy, Al-Xusayniy kabi olimlarning xizmati beqiyos. An'anaviy qo'shiqchilik o'zida qator yo'nalishlarni shakllantiradi. Bular qatoriga maishiy ashulalar, dostonlar, lirik va ishqiy mavzudagi ashulalar, marosim mehnat qo'shiqlari, lapar-yallalar, bolalar qo'shiqlari kabilarni

kiritish mumkin. Bu qo'shiqlarda xalqning ko'p yillik tarixi azaliy turmush tarzi ifodalanadi. An'anaviy xalq qo'shiqlari davr bilan qadamma-qadam rivojlanib boradi. An'anaviy qo'shiqchilikning rivojlanishida ijro yo'llari katta ahamiyatga ega. An'anaviy qo'shiqlar va maqom ijrolari xalqimiz hayotiga ma'naviy ozuqa sifatida ta'sir etmoqda. An'anaviy qo'shiqchilik janri orasida maqom ijrochiligi alohida ajralib turadi. Maqom ijrochidan muayyan balandlikdagi tovush va ijroviy hamda ilmiy salohiyatni talabetadi. Maqom

yo'nalishi bo'yicha qator ko'rik-tanlovlar, seminar va xalqaro musiqashunoslik simpoziumlari o'tkaziladi. Bu kabi ilmiy konferensiyalar maqom janrining ahamiyatini tushinib yetishda katta xizmat qiladi. Shuningdek, 1987-yilda YUNESKO huzuridagi An'anaviy musiqa bo'yicha xalqaro uyushma qoshidagi "Maqom" guruhining tashkil etilishini ham e'tirof etish joiz. Tarixdan ma'lumki, mahalliy hukmdorlar o'z hukmron mintaqalari rivojlanishiga bevosita ta'sir o'tkazgan. Ularning qiziqishlari va ma'lum bir qonun-qoidalari xalq taqdirini belgilab bergan. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, mahalliy xalq orasida Yevropa musiqasi va ijrochiligini singdirish jarayonlari yuz berdi. Yirik shaharlarda yevropa musiqasi faoliyati shahobchalari o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ayni sharoitda mahoratli sozanda va bastakorlar mahalliy an'analarni saqlab qolish maqsadida o'z bilimlarini shogirdlariga o'rgatdi. Ayniqsa, Ota Jalol boshchiligida Buxorodagi Shashmaqom ijrochilik maktabi va Samarqanddagi Hoji Abdulaziz boshchiligidagi maqomchilik va bastakorlik maktablarini alohida e'tirof etish joiz. Ana shunday olimlarning mashaqqatli mehnatlari o'z samarasini berdi. Turkiston mustamlaka sharoitida bo'lishiga qaramay an'anaviy qo'shiqchilik san'ati taraqqiy eta boshladi. Qo'shiqlarda xalqning og'ir kunlari, mehnatkash xalq ommasining zahmati haqida kuylandi. An'anaviy qo'shiqchilik san'ati rivojida Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining alohida o'rniga ega. Niyoziy o'z she'rlarini sodda tarzda xalq kuylari qolipiga soldi. Harakatlari samarasi o'laroq, ushbu asarlar xalq orasida keng yoyildi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, musiqa tarbiyasi umumiy tarbiyaning asosini tashkil etuvchi manbadir. Musiqa inson axloqiy-hissiy tarbiyasining muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. An'anaviy ijrochilik o'zida juda katta e'tiborni talab qiladigan soha. Bu yo'nalishda ijod qiladigan xonanda ovoz tembriga, vokal ijrosiga katta ahamiyat berishi zarur. Musiqiy ta'limning maqsadi yosh avlodni milliy merosimizga hurmat bilan qaraydigan, musiqiy boyligimizni anglaydigan va sharqona kuylarimiz mohiyatini keng tarannum etadigan komil inson sifatida tarbiyalashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Jalilov, J. Sadirov "Qo'shiqlar xristomatiyasi" O'qituvchi nashriyoti-1995
2. X. Xamidov "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi" O'qituvchi nashriyoti Toshkent-1996
3. M. Jalilov "Qo'shiqlar xristomatiyasi" 1-2 kitob Toshkent-2002
3. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Performance of national and foreign classical works on the stage of the Theater of Young Audiences.
4. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida milliy va xorijiy klassik asarlarning sahnalashtirilishi.
5. Хамитова С. Б. Художественные и идеологические проблемы в репертуаре театра // Miasto Przyszłości. - 2023. - Т. 43. - С. 88-91.